

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

Jizzax davlat pedagogika intituti maktabgacha va boshlang`ich talimda xorijiy til yo`nalishi 541-19- guruh talabasi Qaxxarova Oygul

**Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang`ich ta`lim sohasida xorijiy tillarni o`qitishda multimediya va raqamli vositalardan foydalanishning ahamiyati.**

### **Annotatsiya**

Maqolada Maktabgacha va boshlang`ich ta`limda xorijiy tillarni xususan, ingliz tilini o`qitishda globallasuv jarayoning muhim ehtiyojlaridan hisoblangan axborot-kommunikatsiya vositalaridan hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati to`g`risida so`z boradi. Boshlang`ich ta`lim yoshidagi bolalarning faolligini, dunyoqarashini va til o`rganishga bo`lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida zamonaviy o`quv vositalaridan, o`yinli va multimediya dasturlaridan foydalanishning o`rni, shuningdek, ta`lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalarni qo`llash, o`quvchi yoshlarning yutuqlari va kelajakdagi muvaffaqiyatlarining kafolati bo`lishi haqidagi pedagoglar fikrlari haqida muhoka qiladi.

### **Kalit so`zlar:**

axborot-kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, globallasuv, multimediya vositalari, zamonaviy o`quv vositalari, maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`lim, xorijiy til-ingliz tili.

### **Kirish.**

Hozirgi kunda biz kompyuter va axborot-kommunikatsiyalar davrida yashayapmiz. Biz o`z hayotimizni planshet, noutbuk va smartfonlarsiz tassavur qilolmaymiz. Biz ulardan do`stlarimiz bilan suxbatlashish, fikrlarimizni bo`lishishda, ma`lumotlarni olish va joylashda foydalanamiz. Zamonaviy texnologiyalar yosh bolalarni ham qiziqtirib qo`yganligi bugungi kunda barchamiz uchun oddiy hol bo`lib ulgurdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar butun dunyo bo`ylab ta`lim muassasalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi vositalarni taqdim etadi. Bugungi

kunning dolzarb mavzulardan biri bo`lib ulgurgan maktabgacha va boshlang`ich ta`lim tarbiyalanuvchilarining ingliz tiliga bo`lgan bilim va ko`nikmalarini oshirishga qaratilgan e`tiborning yuqorligi yoshlarga ko`plab imkoniyat eshiklarini ochib berganligi hech kimga sir emas. Shu o`rinda davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2021-yil 19-may PQ-5117-son qarorining “Xorijiy tillarni o`qitishni raqamlashtirish,sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etish” to`g`risidagi<sup>1</sup> 13-bandi ham so`zimiz isbotidir.

Elektron ta`lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Hozirda maktabgacha va boshlang`ich ta`limda raqamli texnologiyalarini qo`llash kelgusida raqobatbardosh ta`lim va tadqiqot modeliga o`tishga asos bo`ladi.

### **Asosiy qism**

Ingliz tilini o`rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish,nafaqat texnik vositalar,balki yangi metod va yangicha yondashuvni ham talab qiladi. Chet tillarini o`rganishda kompyuter o`quv dasturlari bilan ishlash shakllariga,

**-lug`atni o`rganish;**

**-talaffuzni mashq qilish;**

**-dialogik va monologik nutqni o`rgatish;**

**-yozishni o`rganish;**

**-grammatik hodisalarni o`rnish kabilar kiradi.**

Bolalarga ingliz tilini o`rgatishda turli o`qitish metodikalari mavjud. Yosh bolalar xorijiy tillarni o`z ona tillarini o`rganganlari kabi anglab emas balki,eshitgan,ko`rgan narsalariga taqlid qilish orqali tezroq o`rganidalar. Shuning uchun maktabgacha va boshlang`ich ta`lim tarbiyalanuvchilariga chet tilini o`qitishda

---

1. “O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to`g`risida”gi 2021-yil 19-may PQ-5117-son qarori.

multimediya vositalari muhim ro'l o'ynaydi. Ular o'zlarining sevimli multfilm qahramonlariga yoki sevimli ashulalariga gaplarni tushunmasa-da ularning harakatlari orqali tushunishga harakat qiladilar va taqlid qilgan holda ingliz tilidagi nutqlarini o'stiradilar. Bolalar aniq o'ylashadi, hamma narsani so'zma-so'z qabul qilishadi va oddiy jumlar yordamida ga'irishadi. K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, chet tilida so'zlashishni bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda yaxshiroq o'rganib oladi. [Ushinskiy, 1950.118b] <sup>2</sup>

Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi Xitoy tajribasi asosida MTM larda ta'lim sifatini oshirish maqsadida barcha bog'chalar multimediya qurilmalari bilan ta'minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib, she'r va hikoyalar, videoroliklar, bir biridan qiziqarli multfilmlar yordamida o'rgatib kelinmoqda. Shuningdek olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o'yinlardan foydalanish bolalarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarining oshishiga va bolalar o'rtasidagi o'zaro sog'lom raqobatning paydo bo'lishi olib keladi. Bu esa har bir bolada o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning shakllanishiga sabab bo'ladi. Raqamli texnologiyalar bolalarni nafaqat chet tilida muloqot qilishlariga balki, dunyoqarashining kengayishiga va ijodkor bo'lishlariga ham zamin yaratadi. Masalan, bola kompyuter yoki planshetdagi o'yinli dastur orqali biron bir predmetni ingliz tilida nomlanishini o'rganadi, ularni bo'yash, konstruktiv o'yinlarda ularni yasash orqali ijodkorlik qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Chet tili darslariga jalb qilish orqali biz bolalarni muloqotga va interaktivlikka undaymiz. Interaktivlik-bu "nutq vositalari orqali kommunikativ maqsad va natijaning sa'y harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish". Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirish demakdir (A.A.Leont'ev). <sup>3</sup>

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytib o'tish kerakki, davlatimiz kelajak yoshlarni butun dunyoda raqobatbardosh bilimga ega bo'lishlari, kelajakda yetuk inson bo'lib

---

<sup>2</sup>K.D.Ushinskiy-"Rus tilini dastlabki o'qitish"-1864.

<sup>3</sup>D.R.Babayeva-"Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi"-T.-2018

yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Xususan, yuqorida, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda qilingan yangi o'zgarishlar misolida buning isbotini ko'rdik. Axborot-texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni o'qitishda hattoki, bog'cha tarbiyalanuvchilarining ham keng ko'lamda qamrab olinishi, ularning chet tillarini oson o'rganishiga yordam beradi. Bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga boshlang'ich qadam bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. Chet tillarini va raqamli texnologiyalarni mukammal bilgan bolalar kelajakda yetuk va malakali kadrlar bo'lishiga ishinchimiz komil. Dunyoqarashi keng va ijodkor yoshlar Vatanimiz kelajagidir.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori;
2. D.R.Babayeva- "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi"- T.-2018.
3. O'zDst 17368-2020 "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida"
4. K.D.Ushinskiy- "Rus tilini dastlabki o'qitish"- 1864
5. Baxramovna.M.D-"Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar"- T.2016.
6. Early childhood education in English for speakers of other languages by ViAdam, Bob and Morris Paul (1997)
7. [www.blog.xabar.uz](http://www.blog.xabar.uz)
8. [www.goaravetisyan.ru](http://www.goaravetisyan.ru)
9. [www.monster-evo.ru](http://www.monster-evo.ru)